

RESEARCH ARTICLE

Reflection Of Setting And Place In The Translation Of A Literary Work (Using Said Nafisi's Halfway To Paradise As An Example)

Zulfizar Qoraxo'dJayeva

1st-year Student, Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 159-162

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

The article analyzes the artistic translation of spatial descriptions in Said Nafisi's novel "Halfway to Heaven" into Uzbek. Although the overall content of the text is preserved in the translation process, certain lexical and poetic layers are adapted to Uzbek literary traditions, resulting in subtle semantic changes. The analysis demonstrates that literary translation is not merely the transfer of words into another language, but a process of conveying the narrative's mood, the internal conflicts of space, and the artistic layers to the reader.

KEYWORDS

literary translation, spatial description, Said Nafisi, narrative mood, poetic layer, literal translation, false equivalent, semantic subtlety, artistic details, translation analysis.

INTRODUCTION

Badiiy tarjima juda ko'p jihatlari bilan qariyb bir mavqeda turadi. Sababi, "muallif iste'dodi va mahorati mahsuli bo'lgan badiiy asarni mutarjim boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qayta yaratishi talab qilinadi"[4;3]. Xususan, badiiy asarda voqea-hodisa yuz bergan makon tasviri, atrof-muhit, tabiat manzarasi, interyer detallarining berilishi asarning badiiy-estetik mohiyatini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Atoqli fors yozuvchisi Said Nafisiyning "Jannatning yarim yo'lida" romanida bunday unsurlar muallifning kuzatuvchan uslubiga xos ravishda aniqlik, sokinlik va murakkab psixologik sharoitda namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, G'.Salomov ta'kidlaganidek, "Obraz va obrazlilik, majoz va majoziylik, tasvir va tasviriylik badiiy adabiyotning bosh xususiyati bo'lgani singari, bunday adabiy-es-te-tik komponentlarni badiiy tarjimada mukammal aks ettirish tarji-mon oldida turgan asosiy vazifalardan biridir"[5;107].

Nafisiyning mazkur romanida makon tasviri ham badiiy-estetik mazmunning markaziy unsurlaridan biri sifatida namoyon

bo'ladi. Muallif tabiat va interyer tasvirlari orqali syujet ruhiyatini shakllantirib, personajlarning ichki olamini bilvosita ochib beradi. Xususan, asarning dastlabki sahifalarida berilgan bahor kechasining mayin, sokin tasviri nafaqat voqea sodir bo'ladigan makonni ko'rsatadi, balki o'quvchini ikkiyuzlamachilik va riyo hukmron bo'lgan muhitga boshlab kiradi. Quyidagi parcha buni yaqqol ko'rsatadi: تازه ماه اول شب بهار در افق شرقی از پنجره باز اطاق پذیرایی مخمل پوش و اطلس پوش خانم دولت دوست ظاهر شده بود. درختان تبریزی و بید مجنون باغچه جلوی عمارت تازگی و شادابی مخصوصی داشت ، از دور بانگ نشاط انگیز عاشقانه بابلی که پیدا بود در ته باغچه بر درختها نشسته است شنیده میشد . آب نمای روبروی در بزرگ اطاق که بر روی ایوان رو بجنوب باز میشد و بحوض بزرگ وسط چهار خیابان میرفت درین محیط تزویر وریا زیبایی خاصی داشت ، پر تو مهتاب جایجا از میان شاخ و برگ درختان نارهای زرین در میان صحیفه سیمین آن مینداخت [1;4].

Fors tilidagi matnning so'zma-so'z, satr osti tarjimasi quyidagi-cha: Bahor kechasining birinchi oyining yangi oyi

sharq ufqida Davlatdo'st xonimning baxmal bilan qoplangan va atlas bilan bezatilgan mehmonxonasining ochiq oynasidan ko'rinib turardi. Bino oldidagi bog'chani Tabriz teraklari va majnuntollari o'ziga xos bir yangilik va quvonchlikka ega edi. Uzoqdan, bog'chani oxirida daraxtda o'tirgan bulbulning shodlik uyg'otuvchi, oshiqona nidosi eshiltildi. Janub tomonga ochiladigan ayvonga qaragan katta xonaning katta eshigi ro'parasidagi to'rt ko'cha o'rtasidagi katta hovuzga borib quyiladigan favvora, bu ikkiyuzlamachilik va riyo muhitida o'ziga xos go'zallikka ega edi. Oy nuri ularning kumush sahfasi oltin anor daraxtlarining shox va barglari orasidan u yoq-bu yoqqa tushib turardi.

Endi yuqorida berilgan tasvirning A.Habibullayev tarjimada qay darajada qayta aks ettirgani, ayrim badiiy detallar qanday o'zgargani va bu o'zgarishlarning mohiyati nimada ekanligini ko'rib chiqamiz: "Bahorning dastlabki kechasi edi, sharqdan ko'tarilib kelayotgan yangi oy Davlatdo'st xonimning devorlari baxmal va atlaslar bilan qoplangan mehmonxonasining ochiq derazasidan mo'ralab turar edi. Uy oldidagi bog'chada ko'kteraklar bilan majnuntollar yashnab turardi. Uzoqdan, bog'cha ichkarisidan, daraxt shoxiga o'tirib olib sayrayotgan bulbulning oshiqona xonishi eshiltildi. Uyning janub tomonga qarab turgan ayvoniga ochiladigan kattakon eshik ro'parasidagi hovuzdan to'rt tomonga xiyobon cho'zilib ketgan edi. Ana shu go'zal manzara tovlamachi, riyokorlar muhitini bezab turardi. Oyning shoxlar va yaproqlar orasidan tushayotgan zarrin nuri suvning kumush betida jilolanib o'ynardi" [2;4].

A.Habibullayevning badiiy tarjimasida matnning umumiy mazmuni yetkazib berilgan bo'lsa-da, ayrim detallar tarjima jarayonida o'zbekcha badiiy an'anaga moslashtirilgani bois ma'noda sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelgan. Masalan, asliyat matnida "favvora suvining to'rt ko'chani qo'shilgan nuqtasidagi katta hovuzga oqib borishi" aniq ko'rsatilgan, tarjimada esa ushbu holat "to'rt tomonga cho'zilgan xiyobon" tarzida beriladi. Shuningdek, tarjimon "خیابان" (xiyābān) so'zini o'z tarjimasida ham "xiyobon" deb beradi va bunda tarjimonga "soxta ekvivalentlik" pand berib qo'yadi. Chunki ushbu so'z fors tilida "ko'cha" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida esa "xiyobon" "ikki tomoniga qator daraxt, buta va gullar o'tqazilgan yo'l yoki yo'lka; saygoh" [3;394] degan ma'nolarni anglatadi. Natijada muallif tasvirlagan makonning tuzilishi va uning joylashuviga oid tasavvur sal o'zgarganday bo'ladi.

Tahlil jarayonida o'zbekcha tarjimada ayrim uslubiy

kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, "edi", "turardi" kabi yordamchi fe'llarning ortiqcha takrorlanishi matnning ichki ohangiga biroz og'irlik yuklaydi. Bunday takrorlar jumalalar oqimini sekinlashtirib, tasvirning tabiiy ravishda harakatlanishiga xalaqit beradi. Natijada matnning ritmik uyg'unligi pasayadi va o'quvchi tasvirlanayotgan manzarani biroz sustroq qabul qilishi mumkin.

Forscha matnda "ikkiyuzlamachilik va riyo muhitida o'ziga xos go'zallikka ega edi" iborasi tarjimada "tovlamachi, riyokorlar muhitini bezab turardi" shaklida kuchliroq talqin qilingan. Asliyat matnida bu go'zallik muhitning ichida yashirinib turgan, biroz kinoya bilan tasvirlangan bo'lsa, tarjimada u yanada aniqroq ifoda etilgan iboraga aylanadi. Bu esa muallif berayotgan nozik ishoraning o'rniga biroz kuchliroq hissiy taassurot uyg'otadi.

Oy nuri tasviri ham tarjimada bir oz xiralashganday. Fors tilidagi "oltin anor daraxtlari" (نارهای زرین) tasviri o'zbek tilidagi variantda "zarrin nuri" tarzida berilgan. Bu o'zgarish mazmunga putur yetkazmaydi, biroq tasvirning markazi – daraxtning rangiga emas, oy nurining zarrinligiga ko'chadi. Shuningdek, "kumush sahifa" iborasining "kumush bet" shaklida yumshatilishi tabiiy bo'lsa-da, badiiy jihatdan asl metaforaning kitob-sahifa obraziga xos ma'nosini to'liq aks ettirmaydi. Umuman olganda, tarjima muallif tasvirlagan manzaraning ruhini saqlagan bo'lsa-da, ba'zi o'rinlarda poetik moslashtirish, ayrim o'rinlarda esa "soxta ekvivalentlik" hodisasiga duch kelish oqibatida ma'no o'zgarishlari yuz berganligi kuzatiladi. Natijada tarjima badiiy jihatidan ravon va o'qilishi yengil bo'lsa-da, asl matndagi ayrim nozik detallar tarjimonning diqqatidan chetda qolganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, berilgan tabiat tasviri aks etgan parchani quyidagicha o'zbekchallashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi: "Bahorning dastlabki kechasi. Sharqdan ko'tarilib kelayotgan yangi oy Davlatdo'st xonimning devorlariga baxmal va atlaslar osilgan mehmonxonasining ochiq derazasidan mo'ralar, uy oldidagi bog'chada ko'kteraklar bilan majnuntollar yashnab turardi. Uzoqdan, bog'cha ichkarisidan, daraxt shoxiga qo'nib sayrayotgan bulbulning oshiqona xonishi eshiltildi, uyning janub tomonga qaragan ayvoniga ochiladigan baland eshik ro'parasidagi hovuzdan to'rt tomonga qarab ko'cha ketgan va bu go'zal manzara tovlamachi, riyokorlar muhitini bezab turardi. Oyning shoxlar va yaproqlar orasidan tushayotgan zarrin nurlari suvning kumush betida jilolanib o'ynardi."

Muallifning makon tasvirini berishdagi uslubiy mahoratini yana bir parcha orqali ham ko'rish mumkin: در گوشه و کنار این خانه و باغچه مجلل که یکی از معروفترین خانهای تازه ساز خیابان شاهرضا بود تضاد و تناقض عجیبی در میان سلیقه و بیسلیقگی و زیبایی و [1;4].

A.Habibullayev tarjimasida: "Shohrizo xiyobonidagi yangi qurilgan uylar ichida dong'i ketgan bu hashamatli maskan va bog'ning hamma burchagida fahm-farosat bilan betamizlik, go'zallik bilan beo'xshovlik, hashamdorlik bilan zavqsizlik orasidagi g'alati bir nomuvofiqlik yaqqol ko'zga tashlanardi." [2;4]

So'zma-so'z tarjimasida: Ushbu hashamatli uy va bog'chaning chek-chekkalarida, shahreza ko'chasidagi eng mashhur yangi qurilgan uylardan biri bo'lgan bu maskanda, did va didsizlik, go'zallik va xunuklik, dabdaba va didsizlik o'rtasida g'alati bir ziddlik va qarama-qarshilik ko'zga tashlanardi.

"Jannatning yarim yo'lida" asaridan olingan mazkur parcha, bir qarashda faqatgina uy va bog' tasviridan iborat bo'lib ko'rinsa-da, undagi badiiy struktura aslida chuqur psixologik va estetik ziddiyatlarga qurilgan. Matnning o'zagi — go'zallik va xunuklikning yonma-yon mavjudligi, did va didsizlikning bir makonda uchrashuvi, dabdaba va bema'ni bezaklarning qarama-qarshiligi. Aynan shu paradoks uy ichidagi yashirin ijtimoiy ziddiyatni ham ifodalaydi.

Shu bois, ushbu parchaning o'zbek tiliga tarjimasida nafaqat so'zlar darajasida, balki mazmun va poetik qatlam nuqtai nazaridan ham sinchiklab tahlilni talab qiladi.

A.Habibullayevning badiiy tarjimasida matnning umumiy mazmuni saqlangan bo'lsa-da, ayrim leksik birliklar o'zbekcha poetik madaniyatga moslashtirish jarayonida semantik jihatdan kuchaygan yoki yumshatilganini ko'ramiz. Masalan, "g'alati ziddlik va qarama-qarshilik" (تضاد و تناقض عجیب) iborasi tarjimada "g'alati bir nomuvofiqlik" shaklida berilgan. Bu holat semantik yumshashga olib keladi. Chunki asliyat matnida ziddiyat faqat tashqi uyg'unsizlik emas, balki ichki konflikt, ya'ni uy egalari didining bo'linishi sifatida tasvirlangan. Tarjimada esa konflikt kuchi biroz pasaygan, umumlashtirilgan va yumshatilgan.

Shuningdek, fors tilidagi matnda "did va didsizlik, go'zallik va xunuklik, dabdaba va didsizlik" (سلیقه و بیسلیقگی، زیبایی و زشتی) kabi aniq juftliklarda muallif nafaqat qarama-qarshilikni bildiradi, balki jamiyatdagi turli estetik tamoyillarning bir-biriga zid tarzda namoyon bo'lishini

ko'rsatadi. Bu kontrastlar muallif uslubining muhim poetik unsuri hisoblanadi. Tarjimada esa bu kontrastlar "fahm-farosat", "betamizlik", "beo'xshovlik", "zavqsizlik" kabi ta'sir kuchi yuqori birliklar bilan berilgan. Natijada matnning hissiy ohangi kuchaygan, ammo bu holat muallifning odatdagi sokin, betaraf tasvir ohangidan ma'lum darajada chekinishga olib kelgan.

Asl matndagi makon tasviri ham tarjimada qisman o'zgaradi. "Hashamatli uy va bog'cha" (خانه و باغچه مجلل) iborasi A.Habibullayev tarjimasida "hashamatli maskan" sifatida kengaytiriladi. Bu leksik tanlov badiiy ravonlikni ta'minlashda-da, matnning dastlabki predmet aniqligini bir qadar yo'qotadi. Shuningdek, "chekka-burchaklarda" (در گوشه و کنار) degan aniq makon ko'rsatkichi tarjimada "hamma burchakda" shaklida kuchaytiriladi. Asliyat matni esa ziddiyat butun makonda emas, ayrim qismlarda sezilishini ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, tarjima mazmuni saqlagan bo'lsa-da, ba'zi joylarda baholash kuchaygan, ba'zi joylarda esa umumlashtirish sodir bo'lgan. Bu esa matn ohangining o'zgarishiga olib keladi.

Shuningdek, asardagi bu parchada ham mutarjimaga soxta ekvivalent pand bergan. Ushbu parchadagi "xiyaban shahرضا" birikmasi tarjimada "Shohrizo xiyoboni" deb berilgan. Bu holatda esa soxta ekvivalentga yo'l qo'yilgani yaqqol seziladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, fors tilidagi "xiyaban" (xiyābān) so'zi o'zbek tilidagi "ko'cha" leksemasiga to'g'ri keladi. Shakliy o'xshashlik tufayli tarjimada makon tasvirining semantik chegaralari biroz o'zgargan.

Tahlil davomida ko'rinadiki, tarjima umumiy badiiy ohangni va tasvirning ravonligini saqlagan. Biroq forscha matndagi ayrim ma'no nozikliklari — xususan, qarama-qarshilikning keskin ziddlik emas, balki bir makonda yonma-yon mavjud bo'lgan ichki nomuvofiqlik sifatida berilishi o'zbekcha variantda qisman soddalashgan. Natijada tarjima o'quvchi uchun tushunarli va badiiy jihatdan ravon bo'lsa-da, asl matndagi nozik semantik qatlamlarning to'liq aks etmasligi ilmiy tahlil nuqtai nazaridan muayyan farqni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqola Said Nafisiyning "Jannatning yarim yo'lida" asaridagi makon-joy tasvirining o'zbek tilidagi badiiy tarjimasini tahlil qilib, badiiy tarjimaning murakkab jihatlarini ochib beradi. Tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, badiiy asardagi makon tasviri nafaqat voqea-hodisa muhitini yaratadi, balki syujet ruhiyati va personajlarning ichki olamini ifodalashda

markaziy ahamiyatga ega. Tarjima matnning mazmuni va ohangini saqlagan bo'lsa-da, ayrim leksik hamda poetik qatlamlar o'zbek badiiy an'alariga moslashuvi tufayli ma'noda o'zgarishlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga, tarjima ravon, o'qilishi yengil bo'lib, o'quvchi uchun tushunarli badiiy matnni yaratishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari badiiy tarjimaning faqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazish emas, balki syujet ruhiyati, makonning ichki ziddiyatlari va badiiy qatlamni o'quvchiga yetkazish jarayoni ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlil badiiy tarjimada chuqur semantik noziklik va poetik tafakkurning zarurligini tasdiqlaydi.

REFERENCES

- [1] – سعید نفیسی. نیمه راه بهشت. – تهران، ۱۳۴۴. – ۲۹۰ ص – [1]
- [2] – Said Nafisiy, Jannatning yarim yo'lida // forschadan Alimulla Habibullayev tarjimasi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – 296 b.
- [3] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. I.A –Д / Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Ж.V. Шукрона – Ҳ / 591 б.
- [4] – Очилев Эргаш. Бадий таржима масалалари (Ўқув қўлланма). – Т., 2013. – 170 б.
- [5] – Salomov G'aybulla. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2015. – 208 b.